



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


XORAZM VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2023- YIL

2023- yilning yanvar-aprel oylari uchun Xorazm viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida Xorazm viloyatida jami 1 335,9 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni tashkil etdi.




Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.


Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu — oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Joriy yilning yanvar-aprel oylarida jami qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **103,9** mlrd soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilning mos davriga nisbatan **1,3 % ga koʻpayib**, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yilning mos davridagi koʻrsatkich darajasidan **1,7 %ni** va **7,9 %ni** tashkil etdi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da



OʻSISH SURʼATI 103,7 %




● 2022- yil
yanvar-aprel

● 2023- yil
yanvar- aprel


Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Urganch shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **21,5 %** i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **58,9 %** ga), Urganch tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **24,4%**i yoki 2022- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan **4,8 %**) va Xonqa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **27,2 %i** yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **2,0** marta) hissasiga toʻgʻri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2023- yilning yanvar- aprel oylariga kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 100,3 %i to'g'ri kelib, 2022- yilning yanvar- aprel oyidagi ko'rsatkichiga nisbatan 2,0 %ga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 100,3 % ni tashkil etgan holda 862,8 mlrd. so'm miqdorida bajarildi.




Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi %da




Ma'lumot uchun: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Xiva tumaniga (105,3 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 117,8 %) va Urganch shahriga (221,2 mlrd. so'm yoki 90,0 %) to'g'ri keldi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **91,8** mlrd so'mlik, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1 244,1** mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **6,9** % va **93,1** %ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari





2023- yilning yanvar-aprel oyida hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Xorazm viloyati	1 339,5	91,8	6,9	1 244,1	93,1
Urganch sh.	300,6	20,7	7,0	279,5	93,0
Xiva sh.	90,9	8,2	9,0	82,7	91,0
tumanlar:					
Bog'ot	82,7	0,0	0,0	82,7	100,0
Gurlan	59,6	8,5	14,2	51,1	85,8
Qo'shko'pir	88,7	8,3	9,4	80,4	90,6
Urganch	114,0	0,0	0,0	114,0	100,0
Hazorasp	103,2	8,0	7,7	95,2	92,3
Tuproqqal'a	42,3	9,7	23,0	32,6	77,0
Xonqa	109,9	6,3	5,7	103,6	94,3
Xiva	135,9	0,0	0,0	135,9	100,0
Shovot	79,8	8,9	11,2	70,9	88,8
Yangiariq	60,0	8,4	13,9	51,6	86,1
Yangibozor	68,3	4,4	6,5	63,8	93,5



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2023- yil yanvar- aprel oyi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **75,5** % yoki **1008,1** mlrd so'mlik qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **91,4** mlrd so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **88,0** %ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **566,5** mlrd so'mlik ishlar bajarildi yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **65,7** %ni tashkil etdi.

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **369,2** mlrd so'mni yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **94,9** % ni tashkil etdi.

75,5

88,0 %


65,7%

94,9%



Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2023- yil yanvar-aprel**

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Xorazm viloyati	1 339,5	861,1	390,6	84,2
Urganch sh.	300,6	178,8	101,3	20,5
Xiva sh.	90,9	43,0	47,1	0,8
tumanlar:				
Bog'ot	82,7	60,4	18,9	3,5
Gurlan	59,6	22,8	15,1	21,7
Qo'shko'pir	88,7	63,3	23,9	1,5
Urganch	114,0	46,9	51,8	15,2
Hazorasp	103,2	86,8	13,4	2,9
Tuproqqal'a	42,3	26,4	14,4	1,5
Xonqa	109,9	66,3	38,6	5,1
Xiva	135,9	101,3	30,0	4,5
Shovot	79,8	66,2	9,6	4,0
Yangiariq	60,0	47,6	11,4	0,9
Yangibozor	68,3	51,2	15,1	2,0

2023- yilning yanvar-aprel oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

Mrd. so'm

Urganch sh.

22,5



Xiva

10,2



Urganch

8,5



Xonqa

8,2



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Urganch shahri (300,6 mlrd. so'm), Xiva (135,9 mlrd. so'm), Urganch (114,0 mlrd. so'm) hamda Xonqa tumanlariga (109,9 mlrd. so'm) to'g'ri keladi.





XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xorazm viloyati
statistika boshqarmasi

Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni: (62)224-65-22

